

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TEMIR YO‘L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA QURILMALARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Temir yo‘l avtomatika va telemexanika qurilmalari talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Temir yo‘l avtomatika va telemexanika qurilmalari

1. Avtomatika va telemexanika tizimlari to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar;
2. Temir yo‘l avtomatikasining relelari;
3. Avtomatika va telemexanika elementlari;
4. Temir yo‘l avtomatika va telemexanikasining elektr jihozlari va qurilmalari;
5. Temir yo‘llarning kesishuvlari, pereyezdlari va tutashmalari;
6. Peregonda poezdning majburiy to‘xtashidagi xatti-harakatlar tartibi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Avtomatika va telemexanika tizimlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar	Harakatlanayotgan poyezdga har xil topshiriq va buyruqlar o'tkazish ehtiyoji, temir yo'llarda ilk bor boshqarish qurilmalar sifatida maxsus signallar ishlatilishini tushunishini, avtomatika va telemexanika tizimlarining ishonchlilik, uzluksizlik va samaradorlik tamoyillarini tahlil qilish hamda hayotiy va ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llash haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.	7,5 %	3 ta
2	Temir yo'l avtomatikasining relelari	Temir yo'l avtomatikasining relelari harf va raqamlardan iborat maxsus shartli belgilarni (shifr) farqlashni, relelarning tizimlari, tuzilishi va ishlatilishi haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.	10%	4 ta
3	Avtomatika va telemexanika elementlari.	Avtomatika va telemexanika elementlari, ulaning sxemalari, signallar, svetoforlarning turlari, tuzilishi va ishlatilishi hamda ularning farqlanishi, diodlar, avtomatika va telemexanika elementlari turlari, tuzilishi va ishlatilishi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	20 %	19 ta
4	Temir yo'l avtomatika va telemexanikasining elektr jihozlari va qurilmalari .	Temir yo'lda avtomatika va telemexanika tizimlari uchun asosiy elektr jihozlari, qurilmalari va ularning xarakteristikalarini, elektr jihozlari va qurilmalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari, instruktajlari bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi.	27,5 %	11 ta
5	Temir yo'llarning kesishuvlari, pereyezdleri va tutashmalari	Temir yo'llarning kesishuvlari, pereyezdleri va tutashmalari haqida umumiy ma'lumotlar, temir yo'llarning pereyezdleri turlari, farqlanishi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	2,5 %	1 ta
6	Peregonda poezdning majburiy to'xtashidagi hatti-harakatlar tartibi	Peregonda poezdning turlarini biladi, peregonda poezdning majburiy to'xtashini, poezdning majburiy to'xtashidagi xatti-harakatlar va ularning tartibi haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.	5 %	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Aripov N.M. Temir yo‘l transportidagi avtomatika va telemexanikaning nazariy asoslari. Darslik. Toshkent: «Complex Print» 2018
2. Baratov D.X. Temir yo‘l transportida avtomatika va telemexanika asoslari. O‘quv qo‘llanma. ToshTYMI: 2017.
3. A.R. Azizov, S.T. Boltayev, S.S. Xalikov Temir yo‘l transportida MPS qurilmalari va boshqaruv tizimlari O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2020
4. Sh.R.Xorunov va boshqalar Poyezdlar harakatini intervalli boshqarish tizimlari o‘quv qo‘llanma Toshkent: "Davr nashriyoti", 2012-yil.